

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi Ushbu metod o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilimlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

Qo‘llanilishi:

- ✓ o‘quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otish uchun;
- ✓ axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- ✓ sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

Afzalligi:

- 👍 o‘z fikrini lo‘nda bayon etishi;
- 👍 tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- 👍 fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi.

O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadilar. Hamma guruh a‘zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatiladi va masalani yechish shartlari tushuntiriladi.

1-Tarqatma.

Masala: G‘o‘za barg plastinkasining serbar belgisi (B) kambar belgisi (b) ustidan qisman dominantlik qiladi va F_1 duragaylarda barg plastinkasi oraliq holda rivojlanadi. F_1 duragaylar o‘z-o‘zi bilan chatishtirilsa, F_2 qanday hodisa ro‘y beradi?

1-qadam: masalani tushunib, yechib o‘qituvchiga taqdim etgan o‘quvchilar o‘qituvining “assistent” lariga ya’ni “kichik o‘qituchi” larga aylanadilar.

2-qadam: Masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilarga o‘qituvchi va assistentlar individual holda tushuntirish ishlarini olib boradilar va birgalikda masalani yechadilar.



3-qadam: O‘quvchilarga tarqatma № 2 tarqatiladi.

2 - Tarqatma

Masala: G‘o‘za turida tolaning malla rangi (A) oq rang (a) ustidan chala dominantlik qiladi va F_1 duragay o‘simligining tolasi novvot rang bo‘ladi. F_1 duragayini retsessiv belgiga ega bo‘lgan forma bilan qaytadan chatishtirilsa, hilma-xillik F_2 qanday bo‘ladi?

1-qadam: Ikkinchi tarqatmadagi masalani yechish jarayonida “assistent” lar soni yana ko‘payadi.

2-qadam: Assistentlar va o‘qituvchi ikkinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: O‘quvchilarga tarqatma № 3 tarqatiladi.

3-Tarqatma.

Masala: G‘o‘zaning och antotsian rangli o‘simliklari o‘zaro chatishtirilishidan 680 ta o‘simlik olindi. Shundan 340 tasi och antotsian rangli. Qolgan o‘simliklarning qanchasi yashil rangli bo‘ladi.

1-qadam: Uchinchi tarqatmadagi masalani yechish jarayonida “assistentlar” soni yana ko‘payadi.

2-qadam: Assistentlar va o‘qituvchi uchinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: Bu harakat darsning oxirigacha davom ettirilishi mumkin. Natijada barcha o‘quvchilar mavzuni to‘liq tushunib, o‘zlashtiradilar.

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi. Dars jarayonida barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Mavzuni o‘z tengdoshlari yordamida o‘zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Assistentlarning esa “Masala yechish yo‘llarini tengdoshiga tushuntirar ekan” egallagan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Eng muhimi masalalar yechish ancha murakkab bo‘lsada, do‘stona, o‘zaro yordam muhitida osonroq o‘zlashtiriladi. Ushbu texnologiyadan ko‘zlangan maqsad ham shu.